

INGLIZ TILINI O'ZLASHTIRISHGA BO'LGAN YONDASHISHNING  
FILOLOGIK VA NOFILOLOGIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA  
FARQLANISHI

*Isroilova J. Y.,*

*O'zDJTU talabasi*

*Ilmiy rahbar: Muxitdinova X. S.,*

*Pedagogika fanlari doktori, professor*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada filologik hamda nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishga bo'lgan yondashuvning farqlanishi ko'rsatilgan hamda mazkur ta'lim muassasalarida qo'llanilishi tavsiya etiladigan qator ta'lim metodlari keltirilgan.

**Tayanch so'z va birikmalar:** umumiy metodika, xususiy metodika, kommunikativ yondashuv, grammatik-tarjima metodi, tabiiy metod, bevosita metod, bilvosita metod, audio-lingual metod, audio-vizual metod, ongli-qiyosiy metod, kommunikativ metod.

Ma'lumki, hozirgi jamiyatda raqobatbardosh kadrغا aylanish uchun kamida 2 ta chet tilini bilish davr taqozosiga aylandi. Bu tillarni o'qitishga yangicha yondashuv va metodikalarni qo'llash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Xorijiy til o'qitish metodikasini vazifaiy jihatdan umumiy hamda xususiy metodikalarga ajratish mumkin. **Umumiy metodikada**, qanday til o'rganilayotgan bo'lishidan qat'iy nazar barcha xorijiy tillarga xos bo'lgan umumiy qoidalar o'rganiladi. **Xususiy metodika** esa o'rganilayotgan tilning o'ziga xos jihatlari alohida to'xtaladi. Misol uchun, ingliz tilidagi uch zamon: past, present va future dagi "Simple tense" lar umumiy metodikada o'rganilsa, Past Continuous, Present Continuous va Future Continuous kabilar ingliz tilining o'ziga xos jihati sifatida xususiy metodikada o'rganiladi. [1, 7] Mazkur ikki metodika bir-biridan farq qilsa ham, bir tangananing ikki tarafidek, til o'qitish metodikasining bir-birini taqozo qiladigan ajralmas qismidir. Shu tufayli, har qanday til o'qitiladigan muassasada ularning har ikkalasi ham qo'llaniladi.

Yurtimizning aksariyat ta'lim muassasalarida xorijiy tillar orasida aynan ingliz tili ta'limiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Mamlakatimizda qator oliy ta'lim dargohlari, misol uchun, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, O'zbekiston milliy universiteti, Samarqand chet tillari universiteti va shu kabi qator oliygohlar mazkur til mutaxassislarini yetishtirib chiqarishga yo'naltirilgan. Ayni vaqtda, til o'rgatishga ixtisoslashtirilmagan boshqa oliygohlarda ham ingliz tili barcha guruhlarda o'qitiladi. Tilga aloqador bo'lmagan soha talabalariga ingliz tilini o'rgatishda kommunikativ yondashuv eng keng tarqalgan uslub sanaladi. A.E. Chekanova fikricha, kommunikativ kompetensiya bugungi kunda oliygohlardagi eng muhim professional

tayyorlov metodlari orasidan o'rin olgan. [2, 23-26] Kommunikativ yondashuvda talaba, asosan, nutq salohiyatini oshirish, informatsiyani qabul qilish va yetkazib bera olish qobiliyatlari ustida ishlash kabi vazifalarga jalb etiladi. Verbal fikrlash kommunikativ kompetensiyadagi asosiy tushunchalardan biri sanaladi. Albatta, ushbu oliygohlarda til o'rganishdagi eng muhim omil bu dastlabki qo'yilgan "o'rganishdan maqsad"dir. E.N. Sololovning fikricha, "aynan noto'g'ri tanlangan maqsad ta'lim jarayonidagi yanglishmovchiliklarni keltirib chiqaradi." [3, 4] Til o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad uning metodikasini aniqlab beruvchi muhim omil sanaladi.

Jahon standartlarida ingliz tilini o'rganish maqsadlari quyidagi umumiy bir nechta spektrlarda ko'rib chiqiladi:

- EGP (English for General Purposes) – ingliz tilini umumiy maqsadlar uchun o'rganish;
- EAP (English for Academic Purposes) – ingliz tilini akademik maqsadlar uchun o'rganish;
- ESP (English for Specific Purposes) – ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'rganish.

Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan va ixtisoslashtirilmagan oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi maqsadlar o'zaro farqlanadi: ixtisoslashtirilmagan oliygohlar uchun EGP metodikasi qo'llanilsa, ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim rejaları EAP ga ko'ra tuziladi. Demak, nofilologik o'quv yurtlari talabaları maktab darajasidagi, professional yoki akademik orientatsiyalar talab qilinmaydigan sharoitda ingliz tilini o'rgansa, filologik oliygoh talabaları obyektiv orientirlashgan yondashuv asosida ingliz tili ko'nikmasini hosil qiladilar. [4, 67-77] Maqsad turlligining o'ziyoq qo'llaniladigan metodikaning bir-biridan farqli bo'lishini keltirib chiqaradi.

Til o'qitishga ixtisoslashtirilmagan OTMlarda ingliz tili darslari talaba tahsil olayotgan sohaga aloqador ravishda o'tkaziladi. Misol uchun, iqtisodiyot sohasida o'quvchi talabalar ingliz tili darslari davomida ingliz tilidan xabardorlikning iqtisoddagi o'rni va ahamiyati haqida aniq tushunchaga ega bo'lishlari kerak.

Til o'rgatishga ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida talabalarga mazkur tilning nafaqat kommunikatsiyada qo'llanilishi va adekvat anglanishi, balki uning tarixi, tilshunoslik nazariyasi, mazkur tilda so'zlashuvchi jamiyat va undagi ijtimoiy madaniyat ham o'qitiladi. Bu holda, ayniqsa, chet tili o'qitish metodikasining amaliy-traditsion usullaridan foydalanib kelinadi. J. Jalolov fikricha, "chet til o'qitish jarayonida amaliy foydalaniladigan metodlar 3 ta bo'lib, ular **tanishish, mashq qilish va qo'llashdan** iborat. Ko'pchilik tan olgan va o'qitishda bevosita mushohada qilish mumkin bo'lgan mazkur metodlar o'quvchi nuqtai nazaridan nomlangan. O'quvchining chet til o'rganishdagi vazifasi til materiali bilan tanishish, ko'nikma va malaka hosil qilish maqsadida mashq qilish hamda o'z fikrini bayon etish chog'ida,

ya'ni nutqiy muloqotda tildan foydalanishdan iborat." [5, 79] Shu bois chet tillarini o'qitishning 8 ta traditsion metodlari mavjud. Ularga quyidagilar kiradi:

**Grammatik-tarjima metodi** – tilni bilish, ya'ni uning grammatikasi va lug'ati bilan to'liq tanishish. Ushbu metodda pedagog tomonidan aniq grammatik sxema asosida matnlar, gaplar ustida ishlanadi. Ushbu til materiali tarjima metodida o'zlashtiriladi: ingliz tilidan ona tiliga va ona tilidan ingliz tiliga. Mazkur metod ingliz tili grammatikasini chuqur o'rganishga yordam beradi.

**Tabiiy metod** – chaqaloqqa ona tili qanday o'rgatilsa, chet tili ham shunday o'rgatiladi. Tayyor namunalarga taqlid qilish, qayta-qayta takrorlash asosida kishida gapirish (speaking) va o'qib-tushunish (reading) ko'nikmalarini rivojlantiriladi.

**Bevosita metod** – tabiiy metod asosida yaratilgan bo'lib, avvalo, speaking ko'nikmalari ustida ishlanadi va grammatikadan faqatgina nutq normalarga kerak bo'ladigan qoidalar o'rganiladi.

**Bilvosita metod** – til o'rganish maqsadlarining qandayligiga ko'ra keskin chegaralanadi. Unda til o'rganuvchilari orasida iloji boricha maksimal darajada ingliz tili muhiti yaratiladi hamda talaba ingliz tilida erkin gaplasha olishga tayyorlanadi.

**Audio-lingval metod** – mazkur metodda audio mashqlar bajarish davomida eshitilgan gaplardagi bo'shliqlarni to'ldirish, savollarga javob berish orqali lug'at boyligini oshirish hamda ingliz tilida so'zlovchilarning temp, intonatsiya va tonlari bilan yaqindan tanishishga yordam beradi.

**Audio-vizual metod** – intensiv ta'lim, tilning sun'iy muhitini yaratish. Ushbu metodning asosiy maqsadi til o'rganuvchisini og'zaki nutqqa o'rgatish orqali gapirish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Ongli-qiyosiy metod** – ingliz tilidagi barcha 4 ko'nikmalarni (speaking, reading, listening and writing skills) baravariga rivojlantirishga qaratilgan.

**Kommunikativ metod** – eng keng tarqalgan o'qitish metodi bo'lib, o'z ichiga guruhlarda ishlash, sahnalashtirish, savol-javob, debatlar va shu kabi keng qamrovli interaktiv mashg'ulotlarni oladi. [1, 27-34]

Quyidagi jadvalda chet tilining o'qitilish metodikasidagi 8 ta traditsion metodlar tilga ixtisoslashgan va ixtisoslashmagan OTMlarga mos kelish va/yoki tavsiya etilmasliklari keltirilgan:

Metodlar	Til o'qitishga ixtisoslashtirilgan OTMlar	Til o'qitishga ixtisoslashtirilmagan OTMlar
<b>Grammatik-tarjima metodi</b>	Mos keladi	Tavsiya etilmaydi
<b>Tabiiy metod</b>	Mos keladi	Tavsiya etiladi
<b>Bevosita metod</b>	Tavsiya etilmaydi	Tavsiya etiladi
<b>Bilvosita metod</b>	Mos keladi	Tavsiya etiladi
<b>Audio-lingval metod</b>	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi

Audio-vizual metod	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi
Ongli-qiyosiy metod	Tavsiya etiladi	Tavsiya etiladi
Kommunikativ metod	Mos keladi	Mos keladi

Demak, yuqorida sanab o'tilgan metodlar chet tilini o'rganish uchun juda qulay bo'lsa-da, bir vaqtning o'zida filologik hamda nofilologik sohalardagi talabalarga qo'llanilishi tavsiya etilmaydi. Masalan, grammatik-tarjima metodi tilni akademik maqsadlar uchun o'rganayotgan talabalarga mos bo'lgani uchun nofilologik OTM talabalariga qo'llanilishi tavsiya etilmaydi; tabiiy metod tilda boshlang'ich saviyaga ega talabalarga ko'proq mo'ljallangani tufayli nofilologik oliygohlarga tavsiya etiladi, ammo talabalarin saviyasiga ko'ra filologik OTM larda ham qo'llanilishi mumkin; bevosita metod tilning faqat nutq normalariga rioya qilgan holda tilni o'rgangani uchun filologik oliygohlarga tavsiya etilmaydi; bilvosita metod til o'rganish maqsadlarining qandayligiga ko'ra keskin chegaralanishi tufayli fiologik oliy ta'lim muassasalari talabalariga mos kelsa-da, ko'proq nofilologik OTM talabalariga tavsiya etiladi; audio-lingual metod tinglab tushunish hamda so'zlashish ko'nikmalarini rivojlantirishga qulay bo'lgani uchun har ikkala oliygoh talabalariga tavsiya etiladi; audio-vizual metod til o'rganuvchisida gapirish ko'nikmalarini shakllantiradi, shu tufayli har ikkala OTM talabalariga tavsiya etiladi; ongli-qiyosiy metod tildagi barcha 4 ko'nikmalarni baravariga rivojlantirgani sababli har ikkala oliygoh talabalariga tavsiya etiladi; kommunikativ metod, asosan, kinestetik o'rganuvchilar uchun qulay bo'lganligi uchun talabalarga mos ravishda har ikkala turdagi universitetlarda qo'llanilishi mumkin.

Bizningcha, OTMlarda ingliz tilini o'qitishda qo'llanadigan metodlarni aynan ta'lim sohasiga mos kelish yoki kelmasligiga ko'ra tanlab ishlatish kerak. Shu maqsadda, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim rejaları EAP metodikasiga ko'ra tuzilishi, ingliz tiliga ixtisoslashtirilmagan oliygohlar uchun esa EGP metodikasi asosidagi metodlar qo'llanilishi tavsiya etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Л.Р. Сакаева & А.Р. Баранова. Казань, КФУ, 2016. С – 7; С – 27-34.
2. Чеканова А. Э. “Коммуникативный подход в методике развития словесно-логического мышления студентов при обучении английскому языку” // “Педагогическое образование в России”, 2012. С – 23-36.
3. Е.Н. Сололова. «Методики обучения иностранным языкам. Базовый курс лекций». – Изд.: «Просвещение», 2005. с - 4.
4. Dr. Muhammad Islam, “The differences and Similarities between English Specific Purposes (ESP) and English for General Purposes (EGP) Teachers”// J. “Journal of research (Humanities)”, 2015, Volume – 51. P – 67-77.
5. J. Jalolov. “Chet til o'qitish metodikasi”(“Foreign language teaching methodology”). – Т.:“O'qituvchi”, 2012. – 79 - bet.